

BUYUK MUSAVVIR KAMOLIDDIN BEHZODNING HAYOT YO'LI VA SAN'ATGA QO'SHGAN HISSASI

Asatullayeva Go'zal Sirojiddin qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti fizika va texnologik ta'lim fakulteti

Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi yo'nalishi 1-kurs talabasi

Tel: 772662026 guzal2002gu@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Buyuk Sharq musavviri Kamoliddin Behzodning hayot yo'li, uning miniatyura san'atiga olib kirgan yangiliklari va jahon san'atshunosligidagi o'rni o'rganiladi va hozirgi davrda uning bizgacha yetib kelgan tasviriy san'atga qo'shgan hissasini o'rganamiz.

Kalit so'zlar: Kamoliddin Behzod, Sharq miniatyurasi, Hirot maktabi, tasviriy san'at, kompozitsiya, "Sharq Rafaeli", badiiy meros, rangtasvir, metodika, Temuriylar renessansi.

Kamoliddin Behzod buyuk musavvir sifatida barchamizga tanish ammo u haqidagi aniq ma'lumotlarni barchamiz ham bilavermaymiz. Kamoliddin Behzodning hayoti va faoliyati haqidagi ma'lumotlar asosan o'sha davrning tarixiy manbalari — Boburning "Boburnoma", Mirzo Haydarning "Tarixi Rashidiy", Xondamirning "Habib us-siyar" va Do'st Muhammadning "Holoti hunarvaron" kabi asarlaridan bilsak bo'ladi. Kamoliddin Behzod taxminan 1455-yilda (ba'zi manbalarda 1450-1460 yillar oralig'i) Hirot shahrida (hozirgi Afg'oniston hududi) hunarmand oilasida dunyoga kelgan.

Biroq, yoshligida ota-onasidan yetim qoladi.

Uni o'sha davrning mashhur musavviri va xattoti Mirak Naqqosh o'z qaramog'iga oladi. Mirak Naqqosh Hirot kutubxonasining boshlig'i bo'lgan va Behzodning iste'dodini erta payqab, unga san'at sirlarini o'rgatgan. Shu bilan birga uning shakllanishiga ulug' shoir va davlat arbobi Alisher Navoiyning ma'naviy ko'magi juda katta yordam bergan. Uning ijod yo'li asosan ikki yirik madaniy davr bilan bog'liq:

Birinchi davr: Hirot davri (1470–1506/1510) bu davr Behzod ijodining cho'qqisi hisoblanadi. U Sulton Husayn Boyqaro saroyida xizmat qilib, 1487-yilda saltanat kutubxonasiga rahbar (kitobdor) etib tayinlanadi. Bu yerda u Navoiy va Jomiy kabi mutafakkirlar bilan muloqotda bo'lib, o'zining mashhur miniatyuralarini yaratadi. Ikkinchi davr: Tabriz davri (1510–1535) Temuriylar saltanati inqirozga uchrab, Hirot Safaviylar qo'liga o'tgach, Shoh Ismoil I Behzodni Tabrizga taklif qiladi. 1522-yilda u Tabrizdagi shoh kutubxonasiga rahbar etib tayinlanadi. Bu yerda u nafaqat ijod qiladi, balki Safaviylar miniatyura maktabining shakllanishiga asos soladi.

Behzodgacha bo'lgan Sharq miniatyurasida insonlar sxematik, his-tuyg'usiz va

bir xil qiyofada tasvirlangan. Behzod buni butunlay o'zgartirdi. Bu Miniatyura psixoloizmning boshlanishi. U har bir qahramonning yoshini, ijtimoiy kelib chiqishini va hatto xarakterini yuz ifodalari orqali ko'rsatib berdi. Masalan, "Sulton Husayn Boyqaro portreti"da hukmdorning nafaqat haybati, balki uning ichki mulohazakorligi ham sezilib turadi va portret san'atiga yangilik kiritib uni boyitdi. Yana uning asarlarida odamlar shunchaki "turmaydi", balki jonli harakatda bo'ladi. Birining egilishi, ikkinchisining imo-ishorasi butun kompozitsiyaga hayotiylik bag'ishlaydi. Bu asardagi harakat dinamikasi.

Kompozitsiyadagi "Oltin muvozanat"

Behzod asarlarida har bir detal (daraxt, bino, odam, hayvon) matematik aniqlik bilan joylashtirilgan. Ko'p planli qurilish: U asarlarini bir necha qatlamga bo'lib tasvirlagan. Masalan, bir burchakda bog'da suhbatlashayotgan donishmandlar bo'lsa, ikkinchi tomonda xizmatkorlarning kundalik yumushlari tasvirlangan. Bu tomoshabinni asar ichiga "sayohat" qilishga majbur qiladi.

Arxitektura va tabiat uyg'unligi: Binolarning geometrik naqshlari bilan tabiatning erkin shakllarini (egilgan chinorlar, gullagan daraxtlar) bir-biriga mantiqiy bog'lagan. Uning bunday asarlarini o'rganar ekanmiz rassomning qobiliyatiga tasanno aytmaslikning iloji yo'q.

Kamoliddin Behzod ranglar falsafasini

shunchaki bezak sifatida emas, balki kayfiyatni ko'rsatish vositasi sifatida foydalangan.

U lojuvard (to'q ko'k) rangning o'nlab jilolarini yaratgan. Tilla rang esa uning asarlarida nur va muqaddaslik ramzi sifatida ishlatilgan.

Ranglar kontrasti: Behzod "sovuq" va "issiqlik" kontrastini (masalan, moviy fon ustida och qizil kiyimdagi odam) shunday ustalik bilan qo'llaganki, bu ranglar ko'zni charchatmaydi, aksincha, rasmning markaziy nuqtasini ko'rsatib beradi.

Adabiyotlarda Behzodning eng katta jasorati sifatida uning hayotiy realizmga intilgani keltiriladi. Bu hayotiy turmush tarzini shaffoflik bilan yoritishga harakat qilgan.

U saroy hayotidan tashqari, oddiy mehnat jarayonlarini (imorat qurilishi, yer haydash, darvishlar raqsi) tasvirlash orqali tasviriy san'atni xalqqa yaqinlashtirishgan.

Behzod miniatyurasida chizilgan har bir ko'za, gilam naqshi yoki kitob muqovasi real hayotdagi buyumlarning aniq nusxasi bo'lgan. Bu bugungi kunda o'sha davr etnografiyasini o'rganishda tarixiy manba bo'lib xizmat qiladi.

"Behzod maktabi" bizga san'at sohasida katta meros bo'ldi.

Behzod nafaqat rasm chizdi, balki Sharq estetikasining qonun qoidalarini yaratdi.

U yaratgan uslub "Behzodona" deb atalib, Eron, Hindiston (Boburiylar) va Turkiya (Usmoniylar) san'atiga poydevor bo'ldi.

Uning asarlari Sa'diy Sheroziyning "Bo'ston", Nizomiy Ganjaviyning "Xamsa"si

kabi durdona asarlarni bezab, adabiyot va san'atning o'zaro sintezini eng yuqori cho'qqiga olib chiqdi. Adabiy manbalarda uning mahorati yuqori darajada bo'lganini tasdiqlaydi. Behzod nafaqat ijodkor, balki hozirgi tilda aytganda san'at akademiyasining rektori kabi vakolatlarga ega bo'ladi. Hirot an'analarini Tabrizning mahalliy uslubi bilan birlashtirib, dunyoga mashhur Tabriz miniatyura maktabiga asos soldi. Uning rahbarligida "Shohnoma" (Shoh Tahmasp tahriri) kabi eng dabdabali asarlarni yaratdi.

Behzod o'z davrda shogirdlari Qosim Ali, Sulton Muhammad, Mir Sayyid Ali va Muzaffar Ali kabi buyuk musavvirlarga ustozlik qilgan, keyinchalik bu shogirdlarning ba'zilari Hindistonga borib, Boburiylar miniatyura maktabini yaratishadi. Behzodning nafaqat o'zi balki u tarbiyalagan shogirdlari ham uning ishlarini tadbiq etib uning yo'nalishlarini uslublarini yirik davlatlar madaniyatiga olib kirgan.

Buyuk rassom haqida Zahiriddin Muhammad Bobur o'z asarida uni shunday deydi "Behzod musavvirlikda olamning yagona ustozidir degan, garchi uning ishlari juda nozik bo'lsa-da, u soqolsiz yuzlarni (yoshlarni) tasvirlashda biroz kamchiligi bor, lekin soqollilar tasvirida uning tengi yo'q", deb ta'riflagan.

Xondamir esa uni "moniysoni" (ikkinchi Moniy) deb atab, uning qalami jonsiz narsalarga jon bera olishini aytadi.

Behzod asosan miniatyura san'atida ijod qilgan, biroq u bu janrni bir necha yo'nalishlarga boyitdi:

"Zafarnoma" tarixiy janrda chizilgan, rasmlarda jang sahnalari, qal'alar qamali va tarixiy shaxslar qiyofasini tasvirlagan.

Maishiy janrda oddiy xalqning mehnati, qurilish jarayonlari (masalan, "Samarqandda masjid qurilishi"), bazm va sayil sahnalarini realistik tarzda chizgan.

U insonning tashqi ko'rinishi orqali uning ichki dunyosi va ijtimoiy mavqeini ko'rsata olgan. Klassik adabiyot namunalariga (Nizomiy "Xamsa"si, Sa'diyning "Bo'ston"i) ishlangan illyustratsiyalarni misol qilsak bo'ladi.

Rassomning eng mashhur ishlari bugungi kunda dunyoning eng yirik muzeylarida saqlanadi. Misol uchun:

"Bo'ston" miniatyuralari (1488): Qohiradagi Milliy kutubxonada saqlanadi. Ayniqsa, "Yusuf va Zulayxo" sahnasi jahon san'atining durdonasi hisoblanadi. Undagi yetti qavatli bino tasviri va ranglar o'yini murakkab matematik aniqlik bilan ishlangan.

Amir Temur hayotiga bag'ishlangan "Zafarnoma" asari uchun ishlangan rasmlarda kompozitsiya qat'iy tartibga solingan.

"Tuyalar jangi": Bu asar Behzodning keksaygan chog'ida chizilgan bo'lib, hayvonlar anatomiyasi va harakatini tasvirlashdagi yuksak mahoratini ko'rsatadi. Kamoliddin Behzod oddiy rassom emas balki har tomonlama mukammal ko'p qirrali ijodkor bo'lgan. Behzodning dovrug'i u tirikligidayoq G'arbgacha yetib borgan. Bugungi kunda unga bo'lgan munosabatni quyidagicha guruhlash mumkin:

"Sharq Rafaeli" e'tirofi: Yevropa san'atshunoslari (masalan, F.Martin, E.Blishe) uni Uyg'onish davrining buyuk rassomi Rafael Santiga qiyoslashadi. Buning sababi — ikkala rassom ham o'z madaniyatida go'zallik va mukammallik qonuniyatlarini yaratganidir. Behzod va uning maktabiga mansub asarlar Britaniya muzeyi (London), Luvr (Parij), Metropoliten (Nyu-York) va Ermitaj (Sankt-Peterburg) kabi nufuzli maskanlarning eng qimmatli eksponatlardir.

YUNESKO darajasidagi e'tirof: 2000-yilda Kamoliddin Behzod tavalludining 525 yilligi xalqaro miqyosda keng nishonlandi. Bu uning merosi butun insoniyatga tegishli ekanining isbotidir. Kamoliddin Behzodning bizgacha Liniya (Chiziq) metodikasi yetib kelgan. Behzod chizgan chiziqlar o'ta nafis va aniq bo'lgan. U shogirdlariga chiziq orqali nafaqat shaklni, balki qahramonning xarakterini (shovqinli, sokin, g'amgin) ko'rsatishni o'rgatgan. Bu bugun biz darsliklarda o'tadigan "Grafika" fanining asosi hisoblanadi.

Uning metodikasida bino va insonlar tasviri bir-birini inkor etmaydi.

O'zbekiston badiiy ta'lim tizimidagi darsliklar va o'quv qo'llanmalarida Behzod metodikasining bir necha amaliy foydasi bor. Akademik rasm darslarida, Behzod yaratgan portretlar inson yuz tuzilishi (proportsiya) va kiyim burmalarini chizishda asosiy qo'llanma bo'lib kelmoqda. Darsliklarda "Miniatyura" bobining 80% qismi Behzod uslubiga tayanadi. Uning asarlaridagi lojuvard (ko'k), zangor (yashil) va tilla ranglarning o'zaro uyg'unligi ranglar garmoniyasini tushuntirishda eng yaxshi metodika hisoblanadi.

Kompozitsiya fanida Behzodning "Yusuf va Zulayxo" yoki "Zafarnoma" asarlari darsliklarda "Ko'p shaklli kompozitsiya" mavzusini tushuntirishda asosiy ko'rgazmali quoldir. Undagi "shartli perspektiva" qonuniyatlari talabalarga fazoviy tafakkurni rivojlantirishga yordam beradi. Kamoliddin Behzodning binolarni "aksonometrik" (ichki va tashqi qismini barobar ko'rsatish) tasvirlash uslubi chizmachilikda fazoviy tasavvurni boyitdi.

Uning rangtasvirda bo'yoq tayyorlash va ularni ustma ust surtish texnikasi milliy miniatyura darslarining asosidir.

Badiiy dizayn yo'nalishida esa Kamoliddin Behzod qo'llagan naqshlar va detallar zamonaviy kitob grafikasi va interer dizaynida keng qo'llaniladi. O'zbekiston tasviriy san'ati tarixida Kamoliddin Behzod siymosi alohida o'rin tutdi. Temuriylar renessansi davrida yashab ijod etgan ushbu daho musavvir Sharq miniatyura san'atini mutlaqo yangi bosqichga olib chiqdi. Uning ijodi nafaqat Vizantiya yoki Xitoy tarixidagi an'anaviy tasvirlardan voz kechish, balki realistik hayotiy lavhalarni san'at darajasiga ko'tarish bilan xarakterlandi. Kamoliddin Behzod metodikasini nafaqat "tarixiy meros", balki zamonaviy san'at ta'limining "didaktik asosi" hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, Kamoliddin Behzod nafaqat Sharq miniatyura san'atining cho'qqisi, balki butun dunyo tasviriy san'ati rivojiga ulkan hissa qo'shgan islohotchi

musavvirdir. Shu bilan birga u sharq miniatyurasini an'anaviy dekorativlikdan chiqarib, uni chuqur psixologik va falsafiy mazmun bilan boyitdi. Uning mo'yqalami orqali chizilgan har bir chiziq inson ruhiyatining timsoli bo'lib, u yaratgan maktab asrlar osha o'z qiymatini yo'qotmadi.

Behzod — nafaqat musavvir, balki ranglar va shakllar tili bilan inson va koinot orasidagi bog'liqlikni tasvirlagan buyuk faylasufdir. Uning ijodini o'rganish natijasida quyidagi xulosalarga keldim. Kamoliddin Behzod badiiy islohotni miniatyura san'atiga realistik elementlar, inson psixologiyasi va murakkab kompozitsion yechimlarni olib kirish orqali bu janrni yangi bosqichga ko'tardi.

Uning "Ustoz-shogird" an'analari va chizish metodikasi bugungi kunda tasviriy san'at yo'nalishidagi darsliklar uchun metodik poydevor bo'lib xizmat qilmoqda.

Kamoliddin Behzod merosi o'zbek milliy rangtasvir maktabining asosi bo'lib, u yosh rassomlarning estetik didini shakllantirishda muhim manbadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Boburnoma. – Toshkent: "O'qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2008.
2. Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2013.
3. Miniatyuri Sredney Azii. – Moskva: "Izobrazitelnoye iskusstvo", 1979.
4. Kamoliddin Behzod (Hayoti va ijodi). – Toshkent: "O'zbekiston", 2000.
5. O'zbek xalq amaliy bezak san'ati. – Toshkent: "Mehnat", 1991.
6. Kamoliddin Behzod musavvirligi. – Toshkent: "Fan", 1981.
7. Kamoliddin Behzod va Sharq miniatyura maktabi. – Toshkent: "G'afur G'ulom", 2000.